

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
SENTYABR / 9-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASOSIY VOSITALARNING DASTLABKI QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDAGI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Nematova Dilnoza Azamatovna	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZGA YO'NALTIRILGAN BIZNES-JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING HOZIRGI HOLATI.....	15
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	23
Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISH.....	29
Bazarova Mamlakat Supiyevna	
XORIJIY ILMIY STAJIROVKALARNI TASHKIL ETISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHNING TIZIMLI TAHLILI VA KONSEPTUAL MODEL.....	33
Tojiyev S.A., Mashg'ulotov J.A., Usmonov U.M.	
HUDUDLAR IQTISODIYOTIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI BARTARAF ETISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	44
Toshov Mirzabek Hakimovich	
O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH	50
O'rinova Umida Qodirjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA ULTRABINAFSHA C NURLANISH TEXNOLOGİYALARINING QO'LLANILISHI: ZAMONAVIY HOLATI, SAMARADORLIGI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	54
Ibroximov Sanjarbek, Nematov Nurillo, Xakimov Dilmurod	
TEKNOGEN CHIQINDILAR ASOSIDA MNA-1 VA MNA-2 FAOL KIMYOVIY QO'SHIMCHALARINI SINTEZ QILISH VA SEMENT XAMIRINING REOLOGIK KO'RSATKICHLARINI BOSHQARISH.....	64
Muhamedov Nodir Abdug'aniyevich	
IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATOR ASOSIDAGI SHAMOL ENERGETIKA TIZIMINI MATEMATIK MODELASHTIRISH VA VEKTORLI BOSHQARISHNI TADQIQ ETISH.....	69
To'ychiyev Furqat, Rashidov Nuralibek, Abduxalilov Abdumannop	
СЕЙСМОСТОЙКОСТЬ МАЛОЭТАЖНОГО ЗДАНИЯ С ПУЛТРУЗИОННЫМ СТЕКЛОПЛАСТИКОВЫМ КАРКАСОМ И ДЕФОРМАЦИОННО-РАЗВЯЗНЫМИ 3D-ПЕЧАТНЫМИ СТЕНАМИ.....	80
Акбаров Дильшод, Акрамов Хуснитдин	
LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHADA ZEEBEK EFFEKTIGA MNO_2 TA'SIRI	90
Soliyev Muxammadyor, Tursunova Rushana	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH.....	99
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	107
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
UNIVERSITET INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISH EKOTIZIMI SIFATIDA: DUNYO VA O'ZBEKISTONDA TA'LIM SIYOSATINING EVOLYUTSIYASI	114
Sabirov Alisher, Oqmullayev Ravshanjon	
PUTUR YETKAZMASDAN TEKSHIRISH LABORATORIYALARINI AKKREDITATSIYALASHDA STANDARTLASHTIRISH TALABLARINING AHAMIYATI.....	122
Axmedov G'ayratjon Maxmudjonovich	



QURILISH SANOATI KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI	129
G'iyosov Ilxom Karimovich	
KORXONALARDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH: G'OYALARNI TIJORIYLASHTIRISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI	137
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
DAVLAT BUDJETI BARQARORLIGI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR KLASSIFIKATSIYASI	142
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
KORXONALARDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA INNOVATION MARKETING TEKNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	148
Ikramova Nasiba Axmadovna	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING MAMLUKAT IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRI.....	153
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING ASOSIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH VA PROGNOZ NATIJALARINI BAHOLASH (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	158
Ibragimov Aziz Turayevich	
TAQSIMLANGAN IOT TIZIMLARIDA KECIKISHGA SEZGIR VAZIFALARNI CHEKKA HISOBLASH (MEC) TUGUNLARIGA OPTIMAL YO'NALTIRISH USULLARI	164
Xolmatov Numonjon Meliboyevich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ КАЧЕСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ИНФОРМАЦИИ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ НСФО	171
Джамбакиева Гулнора Сайфутдиновна	
RESEARCHING METHODS FOR THE AUTOMATIC DETECTION OF OFFENSIVE LANGUAGE BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE.....	181
Fayzullaev Nurbek, Kuchkarov Muslimjon	
MINTAQAVIY TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	186
Ikromov Elyor Ibodulloyevich	
TUMANLAR SANOAT SALOHIYATINI INTEGRAL BAHOLASH ASOSIDA KICHIK SANOAT ZONALARINI JOYLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MODELI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA).....	193
Yusupova Nigina Djurayevna	
TURIZM SOHASI BARQAROR RIVOJLANISHINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING TASHKILIY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	199
O'sarov Abdulla Davronqulovich	
TASHQI SAVDO JARAYONLARINI BOSHQARISHDA "INTEGRATSIYALASHGAN TARIF" INTERAKTIV XIZMATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	207
Muzaffarov Azimjon Ashraf o'g'li	



TASHQI SAVDO JARAYONLARINI BOSHQARISHDA “INTEGRATSIYALASHGAN TARIF” INTERAKTIV XIZMATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Muzaffarov Azimjon Ashraf o'g'li

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi bo'lim boshlig'i

Email: azimjon7677@umail.uz

Annotatsiya: Tashqi savdo jarayonlarini boshqarishda notarif tartibga solish choralari bo'yicha axborot ta'minotini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Xususan, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining tovarlarni import va eksport qilish jarayonida qo'llaniladigan notarif choralari, jumladan, ruxsatnomalar, sertifikatlar, nazorat turlari hamda vakolatli davlat organlari to'g'risida ishonchli va tezkor axborot olish imkoniyatlari tahlil qilingan. “Integratsiyalashgan tarif” interaktiv xizmatining tashqi savdo jarayonlarini boshqarishdagi o'rni va notarif tartibga solish samaradorligiga ta'siri yoritilgan. Mazkur xizmat orqali tashqi savdo ishtirokchilarining tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan notarif choralari haqida oldindan ma'lumot olishi tashqi savdo operatsiyalarini samarali rejalashtirish, vaqt va moliyaviy xarajatlarni kamaytirish, ortiqcha ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish hamda boshqaruv qarorlari samaradorligini oshirish imkonini berishi asoslangan. Shuningdek, notarif choralari to'g'risidagi axborotni yagona raqamli muhitda shakllantirish va muntazam yangilab borish tashqi savdo jarayonlarining shaffofligi hamda prognoz qilinish darajasini oshirishning muhim omili sifatida baholangan. “Integratsiyalashgan tarif” interaktiv xizmati tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa ma'lumotlarni internet orqali olish, shuningdek, axborotni real vaqt rejimida taqdim etish imkonini berishi normativ-huquqiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: tashqi savdo, tashqi iqtisodiy faoliyat, menejment, notarif choralari, axborot ta'minoti, raqamlashtirish, raqamli boshqaruv, “Integratsiyalashgan tarif”, interaktiv xizmat, ruxsatnoma, sertifikatlashtirish, tashqi savdo jarayonlari, boshqaruv samaradorligi, ochiq axborot.

Аннотация: Исследованы вопросы совершенствования информационного обеспечения мер нетарифного регулирования в управлении процессами внешней торговли. В частности, проанализированы возможности участников внешнеэкономической деятельности по получению достоверной и оперативной информации о нетарифных мерах, применяемых при импорте и экспорте товаров, включая разрешения, сертификаты, виды контроля, а также сведения об уполномоченных государственных органах. Раскрыты роль интерактивного сервиса «Интегрированный тариф» в управлении внешнеторговыми процессами и его влияние на повышение эффективности нетарифного регулирования. Обосновано, что предварительное получение участниками внешней торговли информации о нетарифных мерах, применяемых к товарам, способствует совершенствованию планирования внешнеторговых операций, сокращению временных и финансовых затрат, устранению избыточных административных барьеров и повышению эффективности управленческих решений. Формирование информации о нетарифных мерах в единой цифровой среде и ее регулярное обновление рассматриваются как важные факторы повышения прозрачности и прогнозируемости внешнеторговых процессов. Интерактивный сервис «Интегрированный тариф» обеспечивает доступ через Интернет к нормативно-правовым документам и иной информации, необходимой для осуществления внешнеэкономической деятельности, а также возможность получения информации в режиме реального времени, что закреплено на нормативно-правовом уровне.

Ключевые слова: внешняя торговля, внешнеэкономическая деятельность, менеджмент, нетарифные меры, информационное обеспечение, цифровизация, цифровое управление, «Интегрированный тариф», интерактивный сервис, разрешение, сертификация, внешнеторговые процессы, эффективность управления, открытая информация.

Abstract: The study examines ways to improve information support for non-tariff regulatory measures in the management of foreign trade processes. In particular, it analyzes the ability of foreign economic activity participants to obtain reliable and timely information on non-tariff measures applied to the import and export of goods, including permits, certificates, types of control, and information on authorized government agencies. The role of the “Integrated Tariff” interactive service in managing foreign trade processes and its impact on the effectiveness of non-tariff regulation are examined. It is substantiated that providing foreign trade participants with advance information on non-tariff measures applicable to goods contributes to more effective planning of foreign trade operations, reduces time and financial costs, helps eliminate excessive administrative barriers, and enhances the effectiveness of management decisions. The formation of information on non-tariff measures within a unified digital environment and its regular updating are identified as important factors in increasing the transparency and predictability of foreign trade processes. The “Integrated Tariff” interactive service

provides online access to regulatory legal documents and other information necessary for conducting foreign economic activities and enables information to be obtained in real time, as established by the relevant regulatory framework.

Keywords: foreign trade, foreign economic activity, management, non-tariff measures, information support, digitalization, digital management, Integrated Tariff, interactive service, permit, certification, foreign trade processes, management efficiency, open information.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida tashqi savdo munosabatlarining jadal rivojlanishi, tovar va xizmatlar harakatining kengayishi hamda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari sonining ortib borishi tashqi savdo jarayonlarini samarali boshqarishni talab etmoqda. Bunday sharoitda tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda zarur bo'lgan axborotlarning tezkor, ishonchli va ochiq shaklda taqdim etilishi boshqaruv qarorlarining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, tovarlarni import va eksport qilishda qo'llaniladigan notarif choralar, ruxsatnomalar va sertifikatlar, maxsus nazorat turlari hamda boshqa talablar to'g'risida oldindan aniq ma'lumotga ega bo'lish tashqi savdo ishtirokchilari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tashqi savdo jarayonida tovarning faqat bojxona-tarif stavkalarini aniqlashning o'zi yetarli emas. Tovarning TIF TN kodi, kelib chiqish mamlakati, jo'natuvchi va savdo mamlakati, shuningdek, tovarning xususiyatidan kelib chiqib, unga nisbatan muayyan notarif choralar qo'llanilishi mumkin. Bunday choralar doirasida ruxsatnoma olish, karantin, veterinariya, sanitariya-epidemiologiya, ekologik nazorat, maxsus tovarlarga nisbatan belgilangan talablar, raqamli markirovka va cheklovlarni hisobga olish zarur. Amaldagi "Integratsiyalashgan tarif" interaktiv xizmatida notarif choralar alohida katalog sifatida shakllantirilgan bo'lib, unda cheklangan tovarlar, ruxsatnomalar, eksportga oid talablar va markirovka yo'nalishlari bo'yicha axborotlar taqdim etilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mazkur axborotlarni yagona elektron muhitda shakllantirish va tashqi savdo ishtirokchilariga interaktiv shaklda taqdim etish boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining rasmiy elektron xizmatlari tizimida "Integratsiyalashgan tarif" interaktiv xizmatining mavjudligi tashqi savdo operatsiyalarini rejalashtirish va ular bilan bog'liq boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini axborot bilan ta'minlash imkoniyatini kengaytiradi. Bojxona qo'mitasining rasmiy veb-saytida ham "Integratsiyalashgan tarif" alohida elektron xizmat sifatida ko'rsatilgan.

"Integratsiyalashgan tarif" interaktiv xizmatining muhim jihati shundaki, foydalanuvchi tovarning TIF TN kodini kiritish, import yoki eksport operatsiyasini tanlash, jo'natuvchi mamlakat, tovarning kelib chiqish mamlakati va savdo mamlakati bo'yicha ma'lumotlarni belgilash orqali tovarga nisbatan qo'llaniladigan talablar haqida axborot olishi mumkin. Bu esa tashqi savdo ishtirokchisiga tovarni bojxona chegarasi orqali olib o'tishdan oldin zarur talablarni aniqlash va tegishli tashkiliy choralarni rejalashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, mazkur xizmatning axborot ta'minotida ruxsatnomalar to'g'risidagi ma'lumotlar alohida ahamiyatga ega. Xizmatda karantin, ichki ishlar, sanitariya-epidemiologiya, ekologiya, veterinariya, standartlashtirish va boshqa yo'nalishlar bo'yicha nazoratga tushuvchi tovarlar hamda ularga tegishli talablar haqida ma'lumotlar jamlangan. Bunday ma'lumotlarni yagona axborot muhitida taqdim etish tashqi savdo ishtirokchisining turli davlat organlaridan alohida-alohida ma'lumot izlash zaruratini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

"Integratsiyalashgan tarif" interaktiv xizmati nafaqat axborot olish vositasi, balki tashqi savdo operatsiyalarini oldindan rejalashtirish, resurslarni taqsimlash, ehtimoliy ma'muriy to'siqlarni aniqlash va boshqaruv qarorlarini asoslashga xizmat qiluvchi raqamli boshqaruv instrumenti sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, tashqi savdo ishtirokchisi tovarga nisbatan qanday notarif choralar qo'llanilishini oldindan bilsa, zarur ruxsatnoma va sertifikatlarni olish, markirovka talablarini bajarish yoki maxsus nazorat jarayonlariga tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq tashkiliy harakatlarni oldindan rejalashtirishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, notarif choralar to'g'risidagi axborotlarning ochiqligi va ularni raqamli shaklda taqdim etish tashqi savdo jarayonlarining shaffofligi, prognoz qilinishi va boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda axborotning faqat mavjudligi emas, balki uning foydalanuvchiga tushunarli, tizimlashtirilgan va tovarning aniq tasnifiga bog'langan holda taqdim etilishi ham muhim hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, tashqi savdo jarayonlarini boshqarishda notarif choralar to'g'risidagi axborot ta'minotining raqamli mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda "Integratsiyalashgan tarif" interaktiv xizmatining imkoniyatlarini tahlil qilish, uning tashqi savdo ishtirokchilari uchun axborot ta'minotidagi o'rnini baholash hamda xizmatni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning maqsadi — tashqi savdo jarayonlarini boshqarishda notarif choralar to'g'risidagi axborot ta'minotining raqamli mexanizmlarini tahlil qilish va "Integratsiyalashgan tarif" interaktiv xizmati samaradorligini



oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tashqi savdo jarayonlarini samarali boshqarish zamonaviy iqtisodiyot sharoitida davlat va tadbirkor o'rtasidagi axborot almashinuvini takomillashtirish, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish, qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish hamda tashqi savdo operatsiyalariga sarflanadigan vaqt va xarajatlarni qisqartirish bilan uzviy bog'liq. Shu nuqtai nazardan, tashqi savdo sohasini raqamlashtirish va axborot xizmatlarini integratsiyalashtirish menejmentning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tashqi savdoni yengillashtirish masalalari xalqaro darajada, avvalo, Jahon savdo tashkilotining "Trade Facilitation Agreement" hujjatida o'z aksini topgan. Unda import, eksport va tranzit tartib-taomillari, bojxona bojlari va soliq stavkalari, yig'imlar, tovarlarni tasniflash qoidalari, taqiy va cheklovlar to'g'risidagi axborotni ochiq va oson foydalaniladigan shaklda e'lon qilish zarurligi belgilangan.

Mazkur yondashuv tashqi savdo jarayonlarini boshqarishda axborotning nafaqat mavjudligi, balki uning tezkor, ishonchli, dolzarb va integratsiyalashgan holda taqdim etilishi muhimligini ko'rsatadi. Menejment nuqtai nazaridan, axborot boshqaruv qarorlarini qabul qilishning asosiy resurslaridan biri hisoblanadi. Shu sababli tashqi savdo ishtirokchisiga tovarni import yoki eksport qilishdan oldin zarur bo'lgan tarif va notarif choralari to'g'risidagi ma'lumotlarni yagona raqamli muhitda taqdim etish qaror qabul qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Jahon savdo tashkiloti materiallarida ham tashqi savdoni yengillashtirish jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati alohida qayd etilgan. Internet orqali axborot taqdim etish, elektron to'lovlar, "Yagona darcha", ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt va boshqa raqamli texnologiyalar tashqi savdo ma'lumotlarini yig'ish, almashish va tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirishi ta'kidlangan. Bunda raqamli texnologiyalarni joriy etishda mavjud jarayonlarni tahlil qilish, shuningdek, biznes va davlat organlarining ehtiyojlarini hisobga olish muhimligi ko'rsatilgan.

Mazkur tadqiqotda "Integratsiyalashgan tarif" interaktiv xizmati raqamli boshqaruv instrumenti sifatida qaralib, uning tashqi savdo jarayonlarini boshqarish samaradorligiga ta'sirini baholash, xizmatning rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash hamda uni takomillashtirish bo'yicha tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida belgilanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tashqi savdo jarayonlarini boshqarishda "Integratsiyalashgan tarif" interaktiv xizmatidan foydalanish samaradorligini oshirish masalasi tizimli yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi tashqi savdo jarayonlarini raqamlashtirish, tarif va notarif tartibga solish choralari to'g'risidagi axborotni integratsiyalash, boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta'minlash hamda tashqi savdo operatsiyalarini soddalashtirishga oid nazariy va amaliy yondashuvlarga asoslandi.

Tadqiqotning obyekti sifatida tashqi savdo jarayonlarini boshqarish tizimi, predmeti sifatida esa "Integratsiyalashgan tarif" interaktiv xizmatidan foydalanish orqali tashqi savdo ishtirokchilarini axborot bilan ta'minlash va boshqaruv qarorlarini takomillashtirish bilan bog'liq tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar belgilandi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi "Integratsiyalashgan tarif" interaktiv xizmatining tashqi savdo jarayonlarini boshqarishdagi o'rini aniqlash, xizmatning mavjud funksional imkoniyatlarini tahlil qilish hamda uning samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy-boshqaruv takliflarini ishlab chiqishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda tashqi savdo jarayonlarini samarali boshqarishda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun zarur bo'lgan axborotni tezkor, aniq va ishonchli shaklda olish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tovarlarni import va eksport qilish jarayonida bojxona to'lovlari, tarif stavkalari, notarif choralari, ruxsat beruvchi hujjatlar, sertifikatlashtirish va boshqa talablar to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq va tizimlashtirilgan holda taqdim etilishi tashqi savdo operatsiyalarining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, "Integratsiyalashgan tarif" interaktiv xizmatini tashqi savdo jarayonlarini boshqarishda axborot ta'minotining muhim vositalaridan biri sifatida baholash mumkin. Mazkur xizmatning asosiy afzalligi tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisiga muayyan tovar bo'yicha tashqi savdo operatsiyasini amalga oshirishda zarur bo'ladigan tarif va notarif tartibga solish choralari haqida kompleks ma'lumot olish imkoniyatini yaratishdan iborat.

Tashqi savdo jarayonining an'anaviy boshqaruv modelida tadbirkor zarur ma'lumotlarni turli axborot

manbalari, davlat organlari va elektron resurslardan izlashi talab etilishi mumkin. Bunday holatda axborot izlashga qo'shimcha vaqt sarflanishi, ma'lumotlarni o'zaro taqqoslash zarurati yuzaga kelishi va qaror qabul qilish jarayonining davomiyligi ortishi mumkin. "Integratsiyalashgan tarif" interaktiv xizmatidan foydalanish esa tovarga oid ma'lumotlarni yagona raqamli muhitda olish imkoniyatini kengaytiradi.

"Integratsiyalashgan tarif" interaktiv xizmatining samaradorligini baholashda bir qator mezonlardan foydalanildi. Jumladan, axborotni izlashga sarflanadigan vaqt, zarur ma'lumotlarning to'liqligi, tarif va notarif choralarni aniqlash imkoniyati, tashqi savdo operatsiyalarini oldindan rejalashtirish darajasi, foydalanuvchi uchun qulaylik va raqamli xizmatdan foydalanish natijasida xarajatlarning kamayishi kabi ko'rsatkichlar muhim hisoblanadi.

1-jadval

"Integratsiyalashgan tarif" interaktiv xizmatidan foydalanish samaradorligining asosiy yo'nalishlari

№	Samaradorlik yo'nalishi	An'anaviy yondashuvdagi holat	"Integratsiyalashgan tarif" orqali yechim	Kutiladigan natija
1	Axborot izlash	Turli manbalardan ma'lumot izlash zarurati	Ma'lumotlarni yagona interaktiv xizmat orqali olish	Vaqt tejallishi
2	Tarif choralari	Bojxona to'lovlarini oldindan aniqlashda qo'shimcha hisob-kitoblar zarurati	Tovar bo'yicha tarif ma'lumotlarini olish	Xarajatlarni oldindan baholash
3	Notarif choralar	Qo'shimcha talablarni aniqlash zarurati	Tovarga nisbatan belgilangan choralar haqida ma'lumot olish	Xavflarni kamaytirish
4	Qaror qabul qilish	Axborotning turli manbalarda taqdim etilishi	Tizimlashtirilgan axborotdan foydalanish	Qaror qabul qilish sifatining oshishi
5	Tashqi savdoni rejalashtirish	Qo'shimcha talab va xarajatlarni hisobga olish zarurati	Talablarni oldindan aniqlash	Jarayonlarni samarali rejalashtirish
6	Raqamlashtirish	An'anaviy hujjat almashinuvi va qo'shimcha murojaatlar	Elektron interaktiv xizmatdan foydalanish	Tranzaksiya xarajatlarni optimallashtirish

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tashqi savdo jarayonlarini boshqarishda raqamli interaktiv xizmatlarning samaradorligi ularning nafaqat texnik imkoniyatlari, balki biznes jarayonlarini soddalashtirishga qo'shayotgan hissasi bilan belgilanadi. Shu jihatdan, "Integratsiyalashgan tarif" xizmatini tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun nafaqat axborot-ma'lumot xizmati, balki tashqi savdo operatsiyalarini rejalashtirish, tahlil qilish va boshqarishni qo'llab-quvvatlovchi raqamli instrument sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, Bojxona qo'mitasining "Call-markazi"ga kelib tushayotgan murojaatlar tahlil qilinganda, joriy yilning o'tgan 6 oyi davomida 2 433 ta murojaat tovarlarga notarif choralarni qo'llash masalalariga oid ekanligi ma'lum bo'ldi. "Integratsiyalashgan tarif" interaktiv xizmatining amaliyotda keng qo'llanilishi mazkur yo'nalishdagi murojaatlar sonini maqbullashtirish hamda foydalanuvchilarning zarur ma'lumotlarni mustaqil va tezkor olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, "Integratsiyalashgan tarif" interaktiv xizmatidan samarali foydalanish tashqi savdo jarayonlarida axborot asimmetriyasini kamaytirish, tadbirkorlik subyektlarining zarur ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatini kengaytirish, tashqi savdo operatsiyalarini oldindan rejalashtirish va boshqaruv qarorlarining asoslanganlik darajasini oshirish uchun muhim raqamli mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar bildiriladi:

- "Integratsiyalashgan tarif" interaktiv xizmatining yangi talqini amaliyotga joriy etish va foydalanuvchilarga yetib borishini ta'minlash maqsadida ushbu xizmatning imkoniyatlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish;
- yangi talqindagi "Integratsiyalashgan tarif" interaktiv xizmatida sun'iy intellekt elementlarini qo'llash orqali foydalanuvchilar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish;
- "Integratsiyalashgan tarif" interaktiv xizmatini bojxona organlarining axborot tizimlariga integratsiya qilish orqali ma'lumotlar takroriyiligining oldini olish.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-57-son Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-7451997>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi "Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-122-son qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-7452043>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-apreldagi "Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ma'muriy tartib-taomillarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4297-son qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-4302716>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-noyabrdagi "Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4525-son qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-4602230>
5. World Trade Organization. *Trade Facilitation Agreement*. – Geneva: WTO.
6. World Customs Organization. *Transparency and Predictability Guidelines*. – Brussels: WCO.
7. World Customs Organization. *Single Window Environment*. – Brussels: WCO.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100